

QARDOSH TILLARDA QO'LLLANGAN O'XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Kabuljonova Gulbaxor Komiljonovna

Andijon davlat universiteti,

Andijon, O'zbekiston

G-mail: kabulzonovagulbahor@gmail.com

Annotatsiya. Qardosh xalqlar tili, madaniyati, urf-odatlari, mentaliteti ifodachisi sanalgan o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Chunki qardosh tillarni qiyoslash masalasi yanada qiziqarli faktlarni aniqlashga zamin hozirlaydi. Bu esa, o'z navbatida, qardosh tillarda hosil qilingan o'xshatishlarning kognitiv, lingvomadaniy jihatdan mushtarak va farqli tomonlarini aniqlash, baholash, umumlashtirish hamda qiyoslash imkonini beradi. Xususan, mazkur maqolada qardosh tillar sanalgan ozbek, qirg'iz va turk tillarida qo'llangan ayrim o'xshatishlarning o'ziga xos mushtarak hamda farqli lingvomadaniy xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: o'xshatish, til, madaniyat, qiyoslash, qardosh til, milliy nigoh.

Ona tilimiz – o'zbek tili o'zida xalqning qadriyatlari, milliy tafakkuri, tarixi, ruhiyati, ma'naviy dunyosi, o'ziga xos urf-odatlarini in'ikosi noyob bir hodisa, buyuk bir ne'matdir. Har qanday millat o'zining milliy nigohiga ega. Milliy nigoh orqali milliy tushuncha yuzaga keladi. O'sha milliy tushuncha olam lisoniy manzarasining voqelanishiga aloqador leksikada, frazeologik va paremiologik birliklarda, turg'un o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplarda e'tiborga tushadi. Tilshunos olim N. Mahmudov ta'kidlaganidek, "... o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga kelgan" va tashqi dunyon bilishning eng qadimiy usullaridan biri sifatida muayyan xalqning tafakkur tarzini va tasavvurlarini o'zida namoyon etadi. Ularda ma'lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo'ladi. Insonning dunyon bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rinn tutadi. Ya'ni tasviriy vosita sanalgan o'xshatishda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha o'zining ma'lum bir belgi, xususiyatiga ko'ra bir-biriga solishtiriladi. O'xshatishda narsa va hodisalarini ifodalagan leksik birliklar o'zining to'g'ri ma'nosi bilan qiyoslanadi. N.Mahmudov e'tirof etganidek," Sof qiyosga qaraganda o'xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatga ega bo'lgani uchun ham dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vosita sifatida tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan."

Ilmiy tilshunoslikda o'xshatishlarning asosiy ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un(doimiy) o'xshatishlar farqlanishi ta'kidlanadi.

Til bu insonning butun borlig'i – moddiy turmush, madaniy, ma'naviy hayoti, etnik va ruhiy holati, aqlu tafakkuri, estetik olami, o'tmishi, buguni va istiqbolini

gavdalantiradigan musaffo oynadir. Oynaga qarab turib, xalqning mentalitetini, etnik urf- odatlarni, uning o'zigagina xos xususiyatlarini bilib olish mumkin. Milliy-madaniy konnotatsiya til birliklarining milliy nigoh, turg'unlashgan madaniy qarashlar prizmasidagi ma'no qirralaridir. Turg'un o'xshatishlar semantikasida milliy-madaniy konnotatsiya ma'noning baho uzvi orqali voqelanadi. Bunda millatning qadriyatları, asrlar davomida shakllangan madaniy me'yorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, qardosh xalqlar tili, madaniyati, urf-odatlari, mentaliteti ifodachisi sanalgan lingvokulturemalardan biri bo'lган o'xshatishlarning ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Xususan, tekshirish obyektimiz sanalgan qardosh tillarda qo'llangan o'xshatishlarda o'ziga xos mushtarak va farqli lingvomadaniy xususiyatlar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek tilida *gulday*, *yomg'irdek*, *oydek*, *ipakday*, *daryoday*, *yoydek*, *qo'rg'oshinday*, *qushdek*, *yelimday* kabi turg'un o'xshatishlarni uchratamiz. Masalan,

G'am bilan sarg'ayar guldayin diydor. (125)

Bu so'zlarga aqlim shoshib,

Ketmayin daryoday toshib. (100)

Jamoling o'xshaydi osmonda oyga,

Qoshingni o'xshatdim egilgan yoyga. (96)

O'zbek tiliga xos bo'lган bunday o'xshatishlarni qardosh tillar sanalgan qirg'iz va turk tilida ham kuzatish mumkin. Masalan, *Түлөберди өзүн коргошундай* эрип кеткен сыйктуу сезип, сырека чуркан чыкты.(43). Чолпонбай деп атасы ардактап койгон атынын артына "жетим" деген сөз **желимдей жабышти.**(45) Чимкент тарап **көк деңиздей** мелмилден кыштақтын үйлөру балырлуу көлдүн бетинде сүзгөн өрдөк **сыйктуу көрүнөт.**(48)

Ысык-Көлдүн балыгындай сүзүп, Чолпонбай бат эле суунун аркы өйүзүнө чыкты.(58)

Ким билет, балким ата-энесинин өмүрү өтүп, агалары төрөлгөн бул үй азыр **жаш балапандардын уясындай** ыйык көрүнүп, бузууга дити барбай жаткандыр.(68) Кейибей басың, Бекчур. Ано-ищ, Кара- Сенир. **Ыйык Кара-Сенир чөккөн нардай** салынып тур.(22)

Ким табгачтын жумашак жибегине кызыкса,

Ол, жоонун **жибектей жумашак сөзүнө** ээрчиди(23)

Күтүрган иттей жинденип, **окту жамғырдай** жаадырышты.(59)

Yuqorida qirg'iz tilidan keltirilgan matnlarda qo'llangan коргошундай, желимдей, деңиздей, өрдөк сыйктуу, **Ысык-Көлдүн балыгындай**, жаш балапандардын уясындай, чөккөн нардай, жибектей жумашак сөзү, күтүрган иттей, жамғырдай о'xshatishli qurilmalar mazmunan o'xhash ekanligini ko'ramiz. Lekin bu holat aynan teng degani emas. Chunki har bir xalq o'xshatishlarida o'ziga xos o'xshatish etalonlari milliy xususiyatlarning namoyon etilishida alohida xarakterlanadi. Shuningdek, bunday o'xshatishli qurilmalar turk tilida qo'llanadi. Lekin unda ham o'ziga xosliklar kuzatiladi.

Masalan, *Bir az durdu, kapalı dudaklarını birer çizgi gibi injeleten garip bir gülümseme yüzünü burusuklarını arttırdı.*, o düşünmeye devam etti: “*Neyse, buna da sükür...*”

.... çünkü sanat, yeryüzünde ve insanların içinde olup bitenleri, cöplükle sarayı aynı hakikatten uzak ve güzelleştirici örtüye bürüyen *ay ışığı gibi*, tatlı yalan bulutunun arkasından göstermeye mecburdu.(22)

Tam bu anda üç ressamdan biri, iki defa üst üste sergide mukafat kazanmış sarişin bir genç olduğu yerde *mihlanmis gibi* durup gözlerini ileriye dikerek kendi kendine söyledi: ”*Yata bak ulan!*”(29)

.... şaşkınlıkları geçer geçmez üçü *de kuş olup* atölyelerine uçmak istedikleri halde güya birbirlerine belli etmemek için ağır ağır içeri girdiler ... (29)

Yuqorida keltirilgan matnlarda qo'llangan *ay ışığı gibi* (*oy nuridek, oy nuri kabi*), *mihlanmis gibi*, *kuş olup kabi* o'xshatishlar umumiy planda tilimizga yaqin, ammo *kapalı dudaklarını birer çizgi gibi* o'xshatishida esa farqli holatlarni ko'ramiz.

O'xshatishlar tuzilishi va ma'no jihatidan keng qamrovli hodisa bo'lgani uchu ham uni baholash murakkab.Ya'ni subyektning o'xshatish hosil qilishi va bundan ko'zda tutilgan maqsadi,voqelik va undagi narsalar o'rtasidagi o'xshashlikning idrok etilishi hamda tilda barqarorlashishi, yoki individual muallif o'xshatishlaridagi oxorlilik, originallik kabi bir qator xususiyatlar o'xshatishning murakkab hodisa ekanligidan dalolatdir. Birgina tilda bu masalalarni tadqiq etish va asoslash mushkul. Qardosh tillarni qiyoslash masalasi yanada qiziqarli faktlarni aniqlashga zamin hozirlaydi. Bu esa, o'z navbatida, qardosh tillarda hosil qilingan o'xshatishlarning kognitiv, lingvomadaniy jihatdan mushtarak va farqli jihatlarini baholash, umumlashtirish hamda qiyoslash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, qardosh tillarda qo'llangan o'xshatishlar, albatta, o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarga ega. Ya'ni umumiy planda ular o'zaro mushtarak, o'xshash bo'lsa-da, ammo har bir xalq va uning tilida qo'llangan o'xshatish bilan bog'liq milliy idrok va o'xshatish asosini belgilashda xususiy, farqli jihatlar ko'zga tashlanadi. Yuqorida ko'rganımızdek, **Ысык-Көлдүн балыгындаи** o'xshatishida qirg'iz xalqining shu ko'l bilan bog'liq assosiatsiyasi namoyon bo'lganini ko'ramiz.Yoki o'zbek tilida **Samarqandning minoriday zinkiyib, buti selanglab, Qorajonning qalliqqa borayotgani.**(43) misolida esa o'zbek xalqida ham Samarqand minorasining qadimiyligi, balandligi kabi belgilar o'xshatish uchun asos bo'lganini ko'ramiz. Bu kabi holatlarni qiyoslash va o'rganish tilshunoslikdagi muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. Антропонимлар-антропоцентрик тадқиқот обьекти. ЎТА 2013. № 3
2. Kazakov I. O'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar talqini. Filol.fan.doktori (DSc) diss.avtoref. Toshkent. 2024. 73 b.
3. Махмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент. Маънавият 2013. 318 б.

4. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. Тошкент. Mumtoz so'z 2017. 175 б.
5. Худойберганова Д. Тил тафаккур маданият. Тошкент Nodirabegim 2020. 119 б.
6. G'oyibova Z. O'xshatishlar-obrazli milliy tafakkur mahsuli. prof. H. Ne'matovning 75 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konf.mater. Toshkent: Navro'z. 2017. 337 b.
7. Усманов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. Тошкент 2020. 35 б.
8. Sabahattin Ali. Sırça Köşk . - Istanbul: TURKMEN KITABEVİ. 2023. 192 s.
9. Аңгемелер жана повесь. Бишкек: Кутаалам 2016. -283 б.
10. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик 1 – жилд. Алпомиши Тошкент. Faafur Fулом 2015. 482 б.